

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA JALB ETILADIGAN QUROLLI KUCHLARNI QO'LLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Azamov Bahodirjon Nazirovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistraturasi tinglovchisi, podpolkovnik*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etiladigan Qurolli Kuchlarni qo'llashning huquqiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, bu borada olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari ilmiy tahlil qilingan fikr va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, xuquqiy tartibga solish asoslari, davlat organi, qonunchilik, qurolli kuchlar.

Аннотация. В данной статье описаны правовые основы обеспечения общественного порядка и охранной деятельности и история их развития. Также результаты проведенных в этой связи исследований разделены по периодам, даны научно проанализированные мнения и комментарии.

Ключевые слова. Эпоха, общественный порядок, общественная безопасность, правовое регулирование, государственный орган, законодательство.

Abstract. This article describes the legal basic of public order and security activities and the history of their development. Also, the results of research conducted in this regard are divided into periods, scientifically analyzed, opinions and comments are given.

Keywords: period, public order, public safety, legal regulation, state body, legislation.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар доирасида фуқароларни тинч ва осийишта хаётини таъминлаш ҳамда жамиятимизда амалдаги қонунларни ўз вақтида амал қилиш ва унга итоаткорлик бўлиши, шунингдек жамоат хавфсизлиги маданиятини шакллантиришга алохидা эътибор қаратилмоқда.

Жамоат хавфсизлиги ва жамоат тартибини таъминлаш йўналишидаги ишларни “Халқ манфатларига хизмат қилиш” тамойили асосида ташкил этишнинг мутлақо янги механизми ҳамда тартиб қоидалари ишлаб чиқилмоқда ва хаётга таътиб ётилмоқда. Бунда давлат органларини халқ жамоатчилик тузилмалари билан ўзаро мақсадли ҳамкорлиги йўлга қўйилганлиги фикримизни яна бир бор исботи хисобланади.

Prezidentimiz Шавкат Мирзиёвнинг “Бу катта иш. Лекин қамров ва тезкорлик ни ошириш керак. Одамлар қачон ўзини хавфсиз, эркин сезади? Қачон турист кўпаяди? Жиноятчилик йўқ бўлса, хавфсизлигига ишонса, кўчада тартибдан тозаликкача-ҳаммаси таъминланган бўлса. Бунинг учун барча хуқуктарибот идоралари маълумотларини бир муштдек интеграция қилиш керак. Бу интеграция кириб борган ҳар бир тармоқ ходимларининг дунёқарашини ўзгартириш лозим.”[1] deb ta’kidlab o’tganlar.

Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minalashga oid qonunchilik hujjatlari tizimi ham o’ziga xos tarixiy rivojlanish bosqichlarini bosib o’tgan. Qadimgi davrda ilk jamoat xavfsizligiga oid norma va qoidalarning shakllanish bosqichlarini o’zida mujassam etadigan jamoat tartibi, jinoyat va xuquqbuzarliklarni oldini olish, davlatda fuqarolarning xavfsizligini muxofaza qilishga oid eng muxim qoidalarni qadimgi yunon va rim mutafakkirlarining fikr-muloxazalari va qarashlarida uchratishimiz mumkin bo’ladi.

Xususan, qadimgi yunon olimi Platon quyidagilarni ta’kidlaydi: “jamiat a’zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo’ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir. Qayerdaki qonunlar hokim ustidan hukmron bo’lsa, hokimlar esa qonunga qul bo’lsa o’sha davlat gullab yashnaydi. Agar davlat qonunlar ustidan yaroqsiz hokimiyatni o’rnatib qo’yadigan bo’lsa, u holda qonun hech qanday foyda bermaydi, aksincha, davlat uchun juda katta zarar keltiradi”.[2].

Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqqan holda, fikrimizga ko’ra Platon qonun oldida jamiyatdagi barcha mavjud ijtimoiy qatlamlardagi fuqarolarning tengligi va qonunlarga itoatkorligi mamlakat rivojining kafolati xisoblanishini, agar aksincha bo’lsa foydasiz hamda amaliyotga tatbiq etilmagan qonun va qoidalarning mavjudligi davlat hokimiyatining inqirozga yuz tutishinita’kidlab o’tgan.

Bundan tashqari Miloddan avvalgi IV asrda yashab ijod qilgan Aristotel (Arastu)ning fikricha “huquqbuzarliklarning oldini olish, avvalo, buzuq va aqlga zid bo’lgan, buzilgan axloq, urf va odatlarga qarshi kurashsin”.[3].

Jamoat tartibini saqlash va jamoat tartibni ta’minalash bo’yicha tarixiy shaxslarni fikrini o’rganar ekanmiz o’rta asrlarda mamlakatimiz hududida mavjud bo’lgan jamoat tartibini saqlashga oid norma va qoidalarning yuzaga kelishini hamda ushbu vazifalarni bajaradigan bo’linmalarning shakllanishini o’z ichiga olganligini ko’rishiz mumkin.

O’rta asrlarda turon zaminida tashkil topgan Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So‘g‘diyona davlatlarining aholisi o’ziga xos harbiy mahoratga ega bo’lgan. Jumladan, Turonning qadimiy aholisi sak va massaget qabilalari ham harbiy jihatdan qudratli qavm hisoblanib, mintqa hududida mustaqil erkin davlat tuza olganlar. Harbiy kuch qudrat borasida ham o’zlarining salohiyatiga ega davlatlar hisoblangan.

Yurtimiz xududida o’rta asrlarda ilk davlat birlashmalari vujudga kelishi bilan ularning chegaralarini tashqi dushmanlardan himoyalash, aholining tinchligini

ta'minlash, axoli o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda tartib o'rnatish, shahar-qal'alarni qo'riqlash zaruriyati ham vujudga kelgan, bu esa o'z navbatida muayyan aniq vazifalarga ega bo'lgan tartib o'rnatuvchi tuzilmalarning vujudga kelishiga turtki bo'lgan.[4].

Jumladan, milloddan avvalgi I ming yillikda O'rta Osiyoda keng tarqalgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi xisoblangan "Avesto"da davlatchilik, siyosiy-huquqiy g'oyalar, odamlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlar, mulklarni qo'riqlash, aholi orasida jamoat tartibini saqlashni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalarida O'rta Osiyo hududida keng tarqalgan zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" 21 kitobdan iborat bo'lgan. Hatto Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishlari chog'ida "Avesto" kitobini ahomoniylar davrida ko'chirilgan nusxalarini aniqlaganligi, muqaddas kitobning siyosat va harbiy sohaga oid qismini yunon tiliga tarjima qilinganligi bo'yicha ma'lumotlar ham uchraydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bundan deyarli uch ming yil muqaddam ham Turon hududida bugungi kundagi kabi aholi orasida jamoat tartibini saqlash va mol-mulkini qo'riqlash bo'yicha ma'lum darajada xuquqiy normalar mavjud bo'lgan.[5].

Xususan, tarixiy manbalarda Abu Nasr Farobi, Abulqosim Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa ko'pgina mutafakkirlarning asarlarida jamiyatda o'rnatilgan tartib qoidalari va xavfsizlik bilan bog'liq masalalarga qaratilgan yondashuvlar o'z ifodasini topgan.

Buyuk bobomiz Sohibqiron Amir Temur ham o'z mamlakatida jamiyat tinchligi, fuqarolarning xavfsizligi, erkinligi va farovon hayoti bevosita davlatda o'rnatilgan qonunchilik tizimiga bog'liqligi yuzasidan quyidagi fikrlarni ta'kidlaganlar, "... davlat agar din-u oyin asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday sultanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi".[6].

Amir Temur bobomizning "Temur tuzuklari"da mamlakatdagi tartib-osoyishtalikni saqlash borasidagi tadbirlari haqida quyidagi fikrlari bayon etilgan: "Amr etdimki, o'g'ri va qaroqchilarni "Yaso" asosida jazolasinlar; fasadchi, buzuqchi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar. Har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlasinlarki, sipohu raiyatga soqchilik qilsin va kimning biron narsasi o'g'irlansa, buning ma'suliyati uning zimmasida bo'lsin. Va yana buyurdimki, yo'l ustida kuzatuvchilar, zabitlar tayinlansinlarki, yo'llarni yo'riqlab, yo'lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo'ysinlar".[7].

Yuqorida fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, Amir Temuro'z mamlakati hududida tartib-osoyishtalikni fuqarolarni, savdogarlarni, musofirlarni va yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlashdagi amalga oshirilgan ishlari va joriy

qilingan xizmatlarining samaradorligi bilan mamlakatning hamda savdo-sotiqni rivojlanishiga hissa qo'shganlar.

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жамоат тартибини сақлаш бўйича XX asrda sho'rolar va Sovet Ittifoqi davrida ҳам qonunchilik hujjatlari бўйича хуқуқий асослар яратилган.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab to bugungi kunga qadar mamlakatda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashga doir bir qator qonunchilik hujjatlari ishlab chiqildi. Ushbu qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasida jamoat tartibini saqlashga va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini poymol etilishini oldini olishga qaratilgan zarur normativ-huquqiy baza yaratildi. Jumladan, 1990 yil 20 iyunda O'zbekiston "Mustaqillik deklaratsiya"sining qabul qilinishi o'z hududida va tashqi munosabatlarda tanho hokimligi, davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlilagini belgilab berdi.

Shuni ta'kidlash joizki, 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunining [8] qabul qilinishi dunyo hamjamiyatida yangi mustaqil suveren davlat tashkil topganligini anglatib, uning oldiga milliy qonunchilik bazasini shakllantirib, mamlakatda eng avvalo xavfsizlikni ta'minlash kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishni taqozo etardi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligini tashkil etish, Milliy gvardiya va muqobil harbiy xizmatni tuzish huquqi belgilangan bo'lib, ushbu norma bevosita O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tuzilishiga va shakllanishiga dastlabki huquqiy asoslarini belgilab berdi.[9]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 10 yanvardagi "SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari va o'quv yurtlari to'g'risida"gi PF-318-sod Farmoni[10] asosida SSSR Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlarining O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan qo'shilmalari, alohida qismlari va bo'linmalari O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasiga olinganligi alohida ahamiyat kasb etdi.

Yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarga asosan 1992 yil 23 yanvar kunidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasini tashkil etish to'g'risida"gi 29-sod Qaroriga[11] muvofiq O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi bo'linmasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiya bo'linmasi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, fuqarolarning konstitutsion huquqlarini va erkinliklarini hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida tuzildi.

Mamlakatimizda 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadryat hisoblanadi” [12] deb belgilanishi bir tomondan fuqarolar uchun ularning huquqlarini belgilab bergen bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlatning majburiyatini ham belgilab berdi. Holbuki, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar davrida o‘tkazilgan har qanday tadbir, yig‘ilish, miting va namoyishlar hamda ularni o‘tkazish davrida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minalash qonun va boshqa belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar asosida bo‘lishi shartdir. Mazkur vaziyatlar tadbirlar o‘tkazishda jamoat tartibini saqlash va xavfssizligini ta’minalashning ishchan mexanizmlari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtida mintaqamizda hamda jaxonda bo‘layotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligiga taxdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar davlat tuzilmalarigao‘z faoliyatini “Barcha sayi-harakatlar inson qadri uchun” degan ustivor tamoyil asosida yanada takomillashtirish vazifasini yublamoqda.[13].

Шу сабабли Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев ташабbusi билан мамлакатимизда сўнги йилларда қабул қилинган қонун хужжатлари асосида Куч тузilmalariini жамоат тартиbni saqlash ва жамoat тартиbni ta’minalash фаолиятини takomillashтиришга қаратилган амалий ишлар бажарилди. Жумладан, иш услубларини, ахолига ҳизмат қўрсатиш масалаларини, ҳамкорлик механизmlarini, рақамли технологияларни жорий этиш даражасини ва шахсий таркиб билан маъnaviy –маърифий ишларни ташкил этиш чораларини кучайтирилиши бу борадаги олиб борилаётган тизимли ишларнинг муҳим йўналишларидан бири бўлди. Бундан ташқари худудлардаги жиноятчилик ахволидан келиб чиқиб ҳмад худудларни техноген ҳолатларини ҳисобга олган ҳолда ҳар бир туман, шаҳар ва маҳаллаларини тоифаларга ажратиш, шунингдек ҳокимликлар, секторлар ва жамoatчилик билан ҳамкорликда “жиноят ўчоқлари”ни бартараф этиш учун барча зарур куч ва воситаларни жалб қилиш белгиланди. [14].

Юқоридагилардан келиб чиқиб шуни таъkidlash жоизки, ушбу соҳада илмий тадқиқот олиб борган ҳуқуқшунос олимлар тўғри таъkidlagанидек, Ички ишлар органлари билан Миллий гвардия фаолиятида амалга оширилаётган ислоҳотлар ҳуқуқ тартиботни мустаҳкамлаш, фуқароларнинг қонун билан белгилangan ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, жамoat тартиbni saqlash ва жамoat хавfсизлигини таъminlash бўйича уларнинг фаолиятининг самарадорлигини оширишга қаратилган. [15].

Жамoat тартиbni saqlash ва жамoat хавfсизлигини таъminlash бўйича Куролли кучлар бутун дунёда ўзини хавfлилиги билан қўркувда ушla турган

“тождор вирус” (Ковид-19) курашишда бир қатор вазифаларни бажардилар. Жумладан, 2020- йил 15- март куни мамлакатимизда илк бор Ковид-19 инфекцияси аниқланды. [16]. Ўша кундан бошлаб юртимизда жуда тез суръатда тарқалиш бошланди. Ушбу холатларни олдини олиш бўйича Президентимиз томонидан Республика маҳсус комиссия ташкил этилди. Ушбу комиссия қарорига асосан Мудофаа вазирлиги, ички ишлар вазирлиги, миллий гвардия органлари жамоат хавфсизлигини таъминлашга жалб қилинди. Бир қанча даволаниш муассасаларида мудофаа вазирлиги ҳарбий хизматчилари кириш чиқишни назоратга олди, бундан ташқари карантин эълон қилингандан сўнг куч тузилмалар билан ҳамкорликда блок-постларда хизмат ташкиллшатирилди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиб ўтиш лозимки, ҳар қандай вазиятларда жамоат тартибни сақлаш ва жамоат хавфсизлиги таъминлаш бўйича хуқуқий асослар мавжудлиги ва ушбу асослар бўйича мамлакатмиздаги барча куч тузилмалар хизматни олиб боришига жалб этилишини кўришимиз мумкинdir.

Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 26-март кунидаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида Ички Ишлар органлар фаолиятини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирларитўғрисида”ти ПФ-6196-сонли фармонига мувофиқ ҳамда мамлакатимизда жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада ривожлантириш ва ушбу соҳадаги давлат сиёсатининг истиқболли йўналишларини белгилаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 29-ноябр кунидаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти ПФ-27-сонли фармон имзоланди. мазкур фармонга мувофиқ қуидагилар белгиланди:

Биринчидан, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар марказлари ва Тошкент шаҳрида оммавий тадбирларни ўтказишида ҳамда истироҳат боғлари, хиёбонлар ва бозорларда жамоат тартибини сақлашни ташкил этиш бевосита Миллий гвардия бўлинмаларитомонидан амалга ошириш белгиланди;

Иккинчидан, жамоат тартибини сақлаш соҳасида содир этиладиган маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш ваколати Ички ишлар органлари билан бир қаторда Миллий гвардияга берилиши бўйича вазифалар белгиланди;

Учинчидан, Ички ишлар вазирлиги, Миллий гвардия жамоат хавфсизлигини таъминловчи субъектлар сифатида мутахкамланди ва уларнинг аниқ ваколат доиралари белгиланди.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat qanchalik rivojlanib, madaniylashib borsa, barcha fuqarolarning jamoat tartibi va xavfsizligi talablariga rioya etishlari, har qanday g‘ayriijtimoiy hodisalarga nisbatan murosasizligi shunchalik katta ahamiyat kasb etadi.

Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash hamda ushbu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarga qat'iy rioya etish zarurati xalq, jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog'liq bo'ladi. Zero, ular xalqning hoxish-irodasini aks ettiradi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va takomillashuviga faol ko'maklashadi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2022 yil 3 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ichki ishlar vazirligining Situatsion-tahliliy so'zlagan nutqi. KUN.UZ saytidan olingan. (Murojaat qilingan sana 2023 yil 05 mart).
2. Ismailov I, Abdurasulov Q, Fazilov I "Kriminologiya". Umumiy qism: IIV oliv ta'lim muassasalari uchun darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2015. – B 27-28.
3. Ismailov I., Abdurasulov Q., Fazilov I. "Kriminologiya". Umumiy qism: IIV oliv ta'lim muassasalari uchun darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2015.
4. Sodiqov X, Yo'ldoshev B va boshqalar. "O'zbekiston Qurolli Kuchlari" (O'tmishda va xozir) – B 4-6.
5. Ziyayeva D.X. "O'zbekistonda harbiy ish tarixidan". – T.: Sharq – 2012 B 67.
6. "Temur tuzuklari". – Yoshlar nashriyoti uyi. 2019 – B 60.
7. "Temur tuzuklari". – Yoshlar nashriyoti uyi. 2019 – B 10.
8. Закон Республики Узбекистан “Об основах государственной независимости республики Узбекистан” № ЗРУ-336-ХИИ от 31.08.1991 г. (ведомости Верховного Совета Республика Узбекистан, 1991 г., № 11, ст.246)
9. Закон Республики Узбекистан “Об основах государственной независимости республики Узбекистан” № ЗРУ-336-ХИИ от 31.08.1991 г. (ведомости Верховного Совета Республика Узбекистан, 1991 г., № 11).
10. 1992 yil 10 yanvardagi “SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlar va o'quv yurtlari to'g'risida”gi PF-318-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. lex.uz (murojaat sanasi: 05.03.2024).
11. 1992 yil 23 yanvar kunidagi O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Vazirlar MAxkamasining “O'zbekiston respublikasining Milliy gvardiyasini tashkil etish to'g'risida”gi 29-son Qarori. lex.uz (murojaat sanasi: 17.11.2021).
12. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O'zbekiston 2023 13-modda.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021- йил 29-ноябр кунидаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-27-сонли фармони

//Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.11.2021 йил. (Murojaat qilingan sana 2023 yil 05 mart).

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021- йил 26-март кунидаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиб соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жихатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6196-сонли фармони //Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 йил. (Murojaat qilingan sana 2023 yil 05 mart).
15. С.М. Селиманова, А.А. Худойбердиев Ички ишлар органлари Миллий Гвардия бўлинмалари билан ҳамкорликда оммавий тадбирлар ўtkазиш вақтида жамоат тартибни саклашнинг асосий йўналишлари. // “Судебно-правовые реформы : национальный и зарубежный опыт” материалы международной научно практической конференции.(30 сентября 2021 года).- Т.: Университет общественной безопасности Республики Узбекистан, 2021.- ст 57.
16. KUN.UZ saytining 2020 йил 15 март кунидаги “Коронавирус Ўзбекистонда. Илк бемор аниқланди” мақоласидан olingan. (Murojaat qilingan sana 2023 yil 05 mart).